

**TARBIYALANUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AXAMIYATI**

Anorboyeva Feruzaxon Nomozboy qizi
JDPU Maktabgacha ta'lism yo'nalishi l-bosqich magistri

Annotatsiya: Ma'naviyat - insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloqi hamda odobi, avlodlar tajribasi asosida pedagoglarimiz nazorati ostida shakllanib boradi. Ushbu maqolada o'quvchilarda ma'naviy -axloqiy tarbiayni shakllantirishning axamiyati va uning pedagogik mazmuni xaqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya , ta'lism-tarbiya sifati, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijtimoiy-axloqiy talab, xulq-atvor, axloqiy tarbiya, axloqiy me'yor.

Аннотация: Духовность формируется под присмотром наших педагогов на основе жизненного опыта, труда, знаний, нравов и нравов человека, опыта поколений. В данной статье говорится о важности формирования духовно-нравственного воспитания учащихся и его педагогическом содержании.

Ключевые слова: духовное воспитание, качество образования, воспитание в духе патриотизма, социально-нравственные требования, поведение, нравственное воспитание, нравственные нормы.

Annotation: Spirituality is formed under the supervision of our pedagogues on the basis of life experience, work, knowledge, morals and manners of a person, the experience of generations. This article talks about the importance of forming the spiritual and moral education of students and its pedagogical content.

Key words: spiritual education, quality of education, upbringing in the spirit of patriotism, social and moral requirements, behavior, moral education, moral standards.

Bugungi kunda ta'lism muassasalarida ta'lism-tarbiya sifatini takomillashtirish, har tomonlama ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan barkamol shaxslarni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishilaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Bu ustuvor masala yuzasidan davlatimiz rahbariyati tomonidan ko'plab chora-tadbirlar amalgalash oshirilib kelinmoqda. 2017 yil 13- yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari tashkil etilganining 25-yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigida ham Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egaligi, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanaishi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'layotganligi, fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rishimiz zarurligini ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori



ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ham o'quvchilarda ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Bu kabi vazifalaradan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, tarbiyalanuvchilarda ma'naviy -axloqiy tarbiyani shakllantirishimiz, oila instituti va ta'llim muassasalari bilan uzviy aloqada bo'lish muhim sanaladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqeа-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchida ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi-yoshlar tomonidan axloqiy me'yor hamda tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir Bunda quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

⊕ tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarining o'z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;

⊕ ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni o'quvchilarining tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

⊕ tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

Tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda ularning xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlari – jamoa joylarida qattiq gapirish, ko'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, boshqalarning suhbatini bo'lish, kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, tarbiya va ta'llimni xech qachon bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatlari, shu bilan birga bilmndon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega bo'lgan, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar o'quvchi-yoshlarni yetishtirib beradi. Shunday ekan biz pedagoglar ta'llim jarayonida tarbiyaning xam uzviyligini ta'minlagan xolda o'quvchi yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berisb borishimiz va ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olishimiz zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son Qarori. Toshkent



2. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normuradova B. Tarbiyaviy ishlar metodlikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent, Tib-kitob. 2010y
- 3.X.A.Meliyev, O.Jamoldinova, K.Riskulova. "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati". O'quv qo'llanma. Toshkent. 2021 yil. 284 bet.
- 4.X.A.Meliyev, G.I.Xasanova. "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish". O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022 yil. 170 bet.
- 5.X.A.Meliyev, M.X.Qilichova. "Maktabgacha pedagogika". Toshkent. Darslik. 2022 yil. 471 bet.
- 6.Norqo'ziyeva M. "Yangi innovatsiyalarni kasbiy faoliyatda qo'llash fanidan ma'ruzalar matni". / Uslubiy qo'llanma / – Jizzax: JDPU "Tahririy-nashriyot bo'limi nashri", 2023. – 108 bet.